



МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Ibragimova G. R.

Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Tayanch soʻzlar: maktabgacha taʼlim, bolalik xarakter, omil, temperament, fikrlash, nutq, diqqat, хотира, tasavvur, oila, oʻyin, bolalar psixologiyasi.: в этой

Ключевые слова: дошкольное образование, детство характер, фактор, темперамент, мышление, речь, внимание, память, воображение, семья, детпсихология: в этой статье речь пойдет об аннуляции: в этой статье рассматривается детская психология в дошкольных организациях.

Key words: preschool education, childhood character, factor, temperament, thinking, speech, attention, memory, imagination, family, play, child psychology.

Maktabgacha yoshdagi bolalik - bu shaxs shakllanishining qisqa, ammo muhim davri hisoblanadi. Bu yillar davomida bola atrofdagi hayot haqida dastlabki bilimlarni oladi, unda odamlarga, mehnatga, toʻgʻri xulq-atvor koʻnikmalari va odatlari shakllanadi, xarakterga nisbatan maʼlum munosabat shakllana boshlaydi. Shaxs haqida soʻz borar ekan, shaxs tushunchasi insonga taalluqli boʻlib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsining rivojlanishi, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega boʻlgan jamiyatning aʼzosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs boʻlishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, oʻzini yaxlit inson sifatida his etishi, oʻz xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmogʻi kerak.[1]«Shaxs» deganda muayyan jamiyatning aʼzosi tushuniladi. Shaxs boʻlmogʻi uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan oʻz xususiyati va sifatleri bilan boshqalardan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon boʻladi. U oʻzining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga nisbatan shaxsiy munosabati bilan boshqalardan farq qiladi. Bular shaxsning oʻziga xos xususiyatlari boʻlib mazkur xususiyatlar rivojlanib maʼlum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon boʻladi. Demak, inson ijtimoiy



mavjudot unga ijtimoiy iqtisodiy hayot sharoitlari (muhit) tarbiya muhim sanaladi. Muhit hamda tarbiya takomillashib borishi odamning rivojlanib, shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. [2] Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadi. Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. O'zbekistonning qaysi bir hududiga bormaylik, buyuk zotlar uchun qurilgan obida-yu ziyoratgohlarni, yodgorlik majmualarini mehr va iftixor, g'urur va hayajon bilan kuzatamiz [3]. Ana shunday ma'naviy boyliklarimiz zamirida albatta yaxshi xulq va tarbiya yotadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida kishi organizmi rivojlanadi hamda muhitni stixiyali ta'minlay olmaydigan narsalar ta'lim-tarbiya orqali o'rganiladi. Aqliy ta'lim - maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

Masalan, bola o'z ona tili atrofini o'rab olgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Ammo o'qish va yozishni maxsus ta'lim orqali o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma malakalar ta'lim-tarbiya jarayonida egallanadi. Ta'lim-tarbiya yordamida bolaning ba'zi bir tug'ma kamchiliklarini kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. Masalan, ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi. Ta'lim-tarbiya yordamida muhitni salbiy ta'siri natijasida yuz bergan ba'zi bir kamchiliklarni tugatish mumkin. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatni har xil turlari shakllanadi. Ularning asosiylari munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyum bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va



o'quv faoliyatlaridan ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni bolalar o'zlari mustaqil o'zlashtira olmaydilar. Ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida asta-sekin o'zlashtirib boradilar. Bolalarning har xil faoliyatlarni muvaffaqiyatli egallab olishlari asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishining tashkil etilishiga bog'liqdir. Kishi hayotining dastlabki faoliyatidagi eng oddiy turi undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar asosida ma'lum bir munosabatni shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Harakat usullarini egallab borish orqali faollik rivojlanib boradi. Faollikdan esa qay darajada rivojlanib borish ko'proq irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog'liq.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadidir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya yetakchi o'rinda turadi. Tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir bir qancha yondashuvlar mavjud.

Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi.

Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muxit bilan bo'ladigan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola bog'cha yoshiga etgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod



bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi[4].

Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Bola psixologiyasining rivojlanishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi. Shuning uchun u uzoq vaqt davomida o'zi qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan charchamaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixologik jarayonlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova.Sh.A.Maktabgacha pedagogika. Darslik. Tafakkur bo'stoni 2013y
2. Е.А.Мелникова Социализация старших дошкольников на этапе подготовки их к школьному обучению 2009
3. Jumaev E. "Ommaviy madaniyat"ning zararli oqibatlarini // "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 2008-yil, 4-son. 30-bet.
4. Kipchakova, Y. (2021). Methodological and didactic aspects of information and intellectual culture in the education of a developed generation. Экономика и социум, (6-1), 156-159.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar psixologiyasi va ularning o'rganish yo'lida nimalarga e'tibor berish kerakligi va bolaning o'ziga xos xususiyatlarga, xarakter temperamentga ega bo'lgan noyob shaxs ekanligini, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan ba'zi psixologik xususiyatlar haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается детская психология в дошкольных организациях и на что обращать внимание на пути их обучения и что ребенок-уникальная личность с определенными особенностями, характером темперамента, а также некоторыми психологическими особенностями, присущими дошкольникам

SUMMARY

This article covers the psychology of children in preschool educational organizations and what to look out for on their way to learning and whether the child is a unique person with special characteristics, character temperament, as well as some psychological characteristics inherent in preschool children.